



MARYAMBIBI ABDULLAYEVA

**KLASTER YONDASHUVI
ASOSIDA O'QUVCHILARDA
IJTIMOIY – HUQUQIY
ME'YORLARGA HURMAT
HISSINI SHAKLLANTIRISH
(Boshlang'ich sinflar misolida)**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ABDULLAYEVA MARYAMBIBI

DJUMANIYAZOVNA

**KLASTER YONDASHUVI ASOSIDA
O'QUVCHILARDA IJTIMOY – HUQUQIY
MEYORLARGA HURMAT HISSINI
SHAKLLANTIRISH**

(Boshlang'ich sinflar misolida)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

«MALIK PRINT CO»
TOSHKENT – 2021

UO•K:377
KBK: 74.2

A-16

SO'Z BOSHI

Abdullayeva M.Dj.

Klaster yondashuvi asosida o'quvchilarda ijtimoiy – huquqiy me'yorlarga hurmat hissini shakllantirish (*Boshlang'ich sinflar misolida*) (Mas'ul muharrir prof. Sh.Q.Mardonov). – Chirchiq: «Malik print co», 2021. – 102 b.

Mazkur monografiyada XXI asr globallashuv sharoitida innovatsion yondashuvlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy hamda ijtimoiy-huquqiy tarbiyalashga yo'naltirilgan modernizatsion didaktik tizimini takomillashtirish asosida mediasavodxonlikning samarali shakl, metod va vositalari yoritib berilgan. Yangilangan ta'lim mazmunida o'zgarayotgan jamiyat, global ta'minlash borasida yuzaga kelgan ijtimoiy zaruriyatning inobatga olinishiga e'tibor qaratildi. Uzlaksiz ta'limning barcha bosqichlarida bo'lgani kabi boshlang'ich ta'limning ham huquqiy negizlari yaratilganligi, umumiy o'rta ta'lim maktablarining uchinchi va to'rtinchi sinflarida tashil olish chog'ida o'quvchilar bir qadar murakkab bo'lgan ijtimoiy me'yorlar bilan tanishishlari. Jumladan, kiyinish madaniyati, madaniy muassasalar - kinoteatr, muzey va istirohat bog'larida bo'lish, yong'in boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan "O'qish", "Tarbiya" va "Texnologiya", "Jismoniy tarbiya" kabi o'quv fanlari negizida ham o'quvchilar ijtimoiy me'yorlar, qisman esa huquqiy me'yorlar mohiyati bilan tanishib boradilar: axloqiy me'yorlar, milliy urf-odat va an'ana me'yorlari, huquqiy, estetik va diniy me'yorlar, faoliyatni tashkil etishga madaniy yondashuv me'yorlariga batafsil to'xtalib o'tilgan.

Mas'ul muharrir:

Sh.Q. Mardonov – Chirchiq davlat pedagogika universiteti pedagogika fanlari doktori, professor

Tagrizchilar:

S.S. Tajbenova – Nukus davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim fakulteti, p.f.f.d.(PhD), dots.

D.B. Mahmudova – Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim fakulteti, p.f.f.d. (PhD), v.b. dots.

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti ilmiy Kengashining 2021-yil 30 noyabrda 6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

ISBN 978-9943-8774-6-7

Jahon ta'lim tizimi taraqqiyotida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy va huquqiy me'yorlarga hurmat hissini shakllantirishga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. Bu o'z navbatida ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuv va pedagogik texnologiyalarni faol joriy etish bilan bog'liq. Ta'lim jarayoniga joriy etilayotgan innovatsion yangiliklar samarasi o'qituvchining kasbiy-pedagogik kreativligiga bevosita bog'liq. Sarbon deklaratsiyasi, Jahon ta'lim forumi, Ming-yillik rivojlanish maqsadlari, Ta'lim barcha uchun va Lissabon Konventsiyalarida kompetentli yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-huquqiy tarbiyalashga katta ahamiyat berilgan.

Dunyoda innovatsion yondashuvlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy hamda ijtimoiy-huquqiy tarbiyalashga yo'naltirilgan modernizatsion didaktik tizimini takomillashtirish asosida mediasavodxonlikning samarali shakl, metod va vositalarini tashkil chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu nuqtai nazardan boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-huquqiy savodxonlikni kognitiv, motivatsion, faoliyatga doir va kreativ darajalarga muvofiq shakllantirishning amaliy-pedagogik jihatdan aniqlashirish, innovatsion-ta'lim sharoitida o'quvchining o'quv-biluv ko'nikmalarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida fuqarolik boshqaruviga asoslangan jamiyat qurish yo'lida o'quvchilar, shu jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan yaqindan tanishtirish, ularga qat'iy amal qilish ko'nikmalarini shakllantirish huquqiy kunning dolzarb masalasi, bosh shioriga aylandi. Zero, huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo'lishi huquqiy davlatning o'ziga xos xususiyatidir. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida huquqiy madaniyatni oshirish muhim ish hisoblanadi. Shu bilan birga huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning barcha darajalarda ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Zero, huquqiy normalar odamlar ongiga singgan va ular orqali amal qilgan taqdirdagina yashaydi va ro'yobga chiqadi".

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14 sentyabrdagi O'RQ-406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28 iyuldagi PQ-3160-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi qarori, 2017-yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6 apreldagi 187-son "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori va mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

I BOB. KLASSTER YONDASHUVI ASOSIDA O'QUVCHILARDA IJTIMOY-HUQUQIY ME'YORLARGA HURMAT HISSINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY -

NAZARIY MASALALARI.
(Boshlang'ich sinflar misolida)

1.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy va huquqiy me'yorlarga hurmat hissin shakllantirishning mazmuni

Globallashtiruv sharoitida boshqa soxalar qatori uzluksiz ta'lim mazmuni ham tubdan yangilandi. Yangilangan ta'lim mazmunida o'zga-tayotgan jamiyat, global axborotlashuv jarayonining mohiyati aks etishiga, shuningdek, shaxs kamolotini ta'minlash borasida yuzaga kelgan ijtimoiy zaruriyatning inobatga olinishiga e'tibor qaratildi. Uzlaksiz ta'limning barcha bosqichlarida bo'lgani kabi boshlang'ich ta'limning ham huquqiy negizlari yaratildi. Bugungi kunda respublika miqyosida tashkil etilayotgan boshlang'ich ta'limning umumiy mohiyati "Boshlang'ich ta'lim Konseptsiyasi"da belgilab berilgan tamoyillar asosida yo'lga qo'yilmoqda. Mazkur metodologik hujjatga ko'ra boshlang'ich ta'lim quyidagi maqsadni amalga oshirishga yo'natirilishi hozirgi bolalarning psixologik va fiziologik salomatliklarini muhofaza qilish va mustahkamlash; barcha faoliyat turlari bo'yicha bolalar faoliyatini uygotish va qo'llab-quvvatlash; mulqot va hamkorlik ko'nikmalarining shakllanishiga erishish; o'ziga ijobiy baho berish va o'ziga bo'lgan ishonchni qo'llab-quvvatlash; o'quv mustaqilligini shakllantirish (o'qishga bo'lgan xohish va ko'nikma, shuningdek, shaxsiy imkoniyatlari darajasini kengaytirib borish).

Yuqorida qayd etilgan maqsadga erishishda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy munosabatlar jarayoniga faol jalb etish, shaxslararo mulqotni samarali tashkil etishga o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy munosabatlar jarayonining faol ishtirokchilari bo'lishlariga erishishda ular tomonidan ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning muvaffaqiyatli o'zlashtirilishi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqa muayyan ijtimoiy-huquqiy me'yorlar asosida tashkil etiladi. Ko'p holatlarda ijtimoiy va huquqiy me'yorlar asosida tartibga solinadigan munosabatlar jarayoni

ishtirokchilarning madaniyatlik darajasini ham ifodalashga xizmat qiladi. Jamoa joylarida o'zini tutish, kinoteatrlarga tashrif buyurish, umumiy ovqatlanish muassasalarida maishiy xizmat turlari, jamoa transportidan foydalanish, shuningdek, yo'l harakati qoidalariga rioya qilish jarayonida shaxsning umumiy madaniyati namoyon bo'ladi. Shu bois oila, maktabgacha tarbiya va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida bolalarni so'z yuritilgan jarayonlar uchun taalluqli bo'lgan ijtimoiy va huquqiy me'yorlar bilan tanishtirish, ularga qat'iy rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan sanaladi.

Muammoni yoritishda, eng avvalo, e'tiborni "madaniy xulq-atvor" tushunchasi qanday mohiyatga egaligini aniqlab olish lozim. Ushbu tushuncha anglanganidek, "madaniy" va "xulq-atvor" tushunchalarining o'zaro birlashuvi asosida shakllangan. Manbalarda "madaniy" atamasi "madaniyat" tushunchasi negizida shakllangan. Shu sababli dastlab "madaniyat" tushunchasining mazmuni bilan tanishib olamiz.

Manbalarda "madaniyat" tushunchasiga shunday ta'riflar beriladi:

1. Lotincha "kultura" atamasidan olingan bo'lib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi; mumtoz lotin tilida "madaniyat" tushunchasi "erni parvarish qilish", "erga ishlov berish" ma'nosida qo'llanilib kelingan. Keyinchalik "madaniyat" tushunchasi bilimdon, ma'rifatli, yuksak tarbiyali insonlarni ta'riflashda ham ishlatila boshlanadi (Falsafa. Qisqacha izohli lug'at / Mualliflar: M.N. Abdullaev va boshq. Mas'ul muharrir: A. Jalolov. - Toshkent: Sharq NMAK Bosh tahririyati, 2004. - 193-bet).

2. Dunyo to'g'risidagi tasavvurlar boyliklari va muayyan turmush tarzining umumiyligi bilan bog'liq bo'lgan odamlar uchun umumiy axloq qoidalari tizimi; shaxs xulq-atvori, muomalasi va xatti-harakatlarining ma'lum ketma-ketlik asosida shakllangan tizim; jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy hayotida qo'lga kiritilgan yutuqlar majmui; inson faoliyatining mahsuli, natijasi (Pedagogika fanidan izohli lug'at / Mualliflar: J. Hasanboev va boshq. M.X. To'xtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. - Toshkent: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2009. - 250-251-betlar).

3. Arabcha "madaniyat" (Madina shahrida VII asrdan boshlab targ'ib etila boshlagan yangi dunyoqarash tarafdorlari va ular izdoshlarining qarashlari, nuqtai nazarlari va amaliy xatti-harakatlari majmui) so'zidan olingan bo'lib, kishilarning tabiatini, borligini o'zlashtirish va o'zgartirish

jarayonida yaratgan moddiy, ma'naviy boyliklar, ularni qayta tiklash hamda rivojlantirish yo'llari, uslublari majmui; inson faoliyatining ham mahsuli, ham sifat ko'rsatkichi (Mustaqillik. Izohli ilmiy-omnabop lug'at / Mualliflar: M. Abdullaev va boshq. R. Ro'ziev va Q. Xonazarov umumiy tahririda. To'ldirilgan uchinchi nashri. - Toshkent: Sharq NMAK Bosh tahririyati, 2006. - 171-172-betlar).

4. Insonning ijodiy kuchi aks etadigan fikriy, ma'naviy yoki badiiy faoliyat mahsuli. Tushunchaning mohiyatini quyidagi uch talqinda ifodalash mumkin: 1) moddiy va ma'naviy qarashlar mohiyati; 2) bir qator bilimlar sohasi: tafakkur, mehnat, nutq, xulq-atvor va boshqalarning rivojlanish bosqichlari; 3) inson mohiyatini ifodalovchi ijtimoiy va mental rivojlanish darajasi (Bolshtaya psixologicheskaya entsiklopediya / Avtorskiy kollektiv: A. B. Almuxanova i dr. - Moskva: Leksno, 2007. - S. 197).

5. Intellektual, ma'naviy va estetik taraqqiyotning umumiy jarayoni; buning tarbiy, axloqiy talab va boshqalarga asoslangan jamiyat holati (shu jihatga ko'ra "madaniyat" so'zi "tsivilizatsiya" atamasiga mos keladi); qandaydir jamiyat, kishilar guruhini yoki tarixiy davrning mavjudligi yoki turmush tarziga xos belgilarning ifodalanishi; intellektual, yanada taraqqiyotli, badiiy faoliyat (musika, adabiyot, rassomlik, teatr, kino va boshqalar)ning shakli va u yordamida yaratilgan boyliklar (Ionin I. G. Bolshaya entsiklopediya / Ucheb. posobie. Vtoroe izd-e. - Moskva, Leksno, 1998. - S. 11).

Yozuvlarda bildirilgan fikrlardan anglanadiki, "madaniyat" tushunchasining shakllanishi bevosita insoniyat tarixi taraqqiyotining muayyan davri bilan bog'liq. Oychiilik va terib-temachilab kun ko'rgan insoniyat tomonidan yerga ishlov berish, ya'ni dehqonchilik safarining o'rganilishi ana shu tushuncha bilan ifodalana boshlagan. Dehqonchilikning paydo bo'lishi mo'l-ko'l oziq-ovqat manbalarini izlaydigan odamlar guruhining o'troq hayotga moslashishini ta'minladi. Ijtimoiylikda muqim bir joyda yashaydigan inson faqatgina dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish haqidagina emas, shu bilan birga turmush tarzida ma'lum qulayliklarni yaratish to'g'risida ham o'ylay boshladi. Dehqonchilikning rivojlanishi bilan birga o'troq qabila va urug'lar chorva (ot, tuya, sigir va boshqa) hayvonlarini ham tobora ko'proq qo'lga o'rgata boshladi. Shu bilan birga chorva hayvonlarini ko'paytirish to'g'risida ham g'amxo'rlik qila boshladi. Inson hayotida muhim o'rin